

25-Mart, 2025-yil

## **ESHITISHIDA KAMCHILIGI BO‘LGAN BOLALARDA NUTQ NUQSONLARINING BIRLAMCHI XARAKTERI**

*Jizzax davlat pedagogika unversiteti Pedagogika va psixalogiya fakulteti  
Defektalogiya yo‘nalishi 4-bosqich talabasi*

**Elmurodova Madina**

**Annotatsiya:** *Mazkur maqolada o‘quvchi-yoshlarda nutq madaniyatini shakllantirishga ta’sir etuvchi omillar haqida fikr yuritiladi. Shuningdek, o‘quvchiyoshlarda nutq madaniyatini shakllantirishga ta’sir etuvchi omillarning ahamiyati va zaruriyati, mazmuni va mohiyati hamda o‘ziga xos xususiyatlari o‘z aksini topgan.*

Ta’lim, tarbiya, talaba-yoshlar, nutq, qobilyat, ijodkorlik, muloqot, kognitivlik, komunikativlik, xotira, diqqat, dunyoqarash, salomatlik, sog’lom turmush tarsi, ma’naviy-ahloqiy barkamollik, shaxs, yetuk mutaxassis, ma’rifat madaniyat O‘sib kenlayotgan bola shaxsining madaniyati uning axloqi, odobi, xulqi, insoniylik sifat va fazilatlari bilan belgilanadi.

Nutq- inson miyasini shakllanishi darajasida rivojlanadi. Nutq ham boshqa psixik faoliyatlar kabi turli salbiy omillar ta’sirida turlicha buzilishi mumkin. Nutq nuqsoni turli shakllarda namoyon bo’ladi va shunga ko’ra insonning ijtimoiy moslashish imkoniyati chegaralanadi.

Ma'lumki, nutq eshitish asosida shakllanadi. Eshituv tizimining jarohatlanishi impressiv va ekspressiv nutqning rivojlanmasligiga olib keladi. Eshituv patologiyasidagi nutq nuqsonlari xarakteri uni yoqotilish darajasiga, eshituvni yo‘qotgan vaqtiga, maxsus mashgulotlarni oz vaqtida boshlanishiga, shuningdek, bolaning individual xususiyatlariga bog’liq.

Eshitishida nuqsoni bo’lgan bolalarni o‘qitishdagi murakkab muammolardan biri, nutqni shakllantirishdir. Bu yo‘nalishning ahamiyati nutqni egallanishiga va ko’p tomondan uni umumiy rivojlanishiga bog’liq.

Eshitishida nuqsoni bolgan bolalarda nutqni o‘ziga xos rivojlanishida nutqiy faoliyatni amalga oshirish uchun saqlangan analizatorlar - taktil, ko’ruv, kinestetik va qisman eshitish analizatorlarining o‘zaro aloqasini qayta ishlash zarur. Ularning nutqiy rivojlanish xususiyatida nutqning asosiy bosqichlarini sekin egallah namoyon boladi. Meyordagi kabi eshitmaydigan bolalarda ham nutqni shakllantirish maxsus talim sharoitida ancha yuqori pogonaga kotariladi.

Eshitishida nuqsoni bo’lgan bolalarni oqitish shunday tashkil etiladiki, ular turli nutq shakllarini daktil, og’zaki, yozma nutqni egallaydilar, nutq tizimini tashkil etuvchi barcha nutqiy faoliyat turlarini o‘zlashtirishadi. Eshitishida nuqsoni bo’lgan bolalarning nutqiy rivojlanishini o‘rganish jarayoni, ularni o‘qitishning samarali usullarini izlash kar bolalarni maxsus talim asosida o‘qitishda nutqiy faoliyat yaxshilanadi, ular bog’langan nutq, uning leksik va grammatik qurilishini o‘zlashtiradilar ( V.I.Beltyukov, R.M.Boskis, K.A. Volkova,

25-Mart, 2025-yil

A.P.Rozova, A.G.Zikeyev, S.A. Zikov, K.V.Korovin, Ye.P.Kuzmicheva, F.F.Rau, N.F.Slezina va boshqalar).

Amaliyotning ko'rsatishicha, eshitishida nuqsonga ega bo'lgan bolalar orasidan sensor nuqson buzilishi oqibatida kelib chiqmagan nutq nuqsonlariga ega, shuningdek, nutq va eshitish nuqsonlari qo'shilib kelgan mujassam nuqsonlarga ega bo'lgan bolalar guruhlarini ajratish mumkin. Bunda ularda intellektual rivojlanish uchun saqlangan asosga ega bo'lishi mumkin. Keltirilgan mujassam nuqson atrofdagilar bilan aloqa o'rnatishni qiyinlashtiradi, ta'lif tarbiya jarayonini tashkil etishni haddan ziyod murakkablashtiradi, shaxs rivojlanishigan salbiy tasir ko'rsatadi. Nutqga o'rgatishdagi qiyinchiliklar biz taxmin qilganimizdek, har doim ham ta'lif metodikasining takomillashmaganligi yoki uni pedagog tomonidan qayta ishlanmaganligi emas. Buning sabablarini eshitish nutqiga bog'liq bo'lmanan nutqiy buzilishlardan izlash kerak. Eshitish nuqsoni va nutq buzilishlarining qoshilib kelishiga ko'p qirrali nuqson sifatida qaraladi, har ikkala nuqson o'zining xususiyatlarini saqlab qoladi va bu bolada to'laligicha nuqsonlarning tuzilishida namoyon boladi. Mavjud nuqsonlarning har biri ma'lum darajada bir-biriga ta'sir korsatadi, o'ziga xos asoratlar qoldirib o'zaro faoliyat yuritadi.

Til - aloqa vositasi bo'lsa, nutq - aloqa shaklidir. Inson hayotida har ikkisining ham o'rni beqiyosdir. Nutq shaxslararo muloqotni ta'minlovchi vositadir. Inson dunyoga kelibdiki, atrof-muhitda u bilan birga bo'lgan insonlar bilan muloqot jarayonida bo'ladi.

Eshitish nuqsoni asorati bolmagan nutq nuqsonlarini aniqlash va ularni oxshash hodisalardan ajratish uchun nutqni tashxis qilishning zamonaviy adabiyotlarda tavsiflangan, moslashtirilgan psixologik- pedagogik metodikalaridan foydalilanildi (N.S.Jukova, S.D.Zabramnaya, Ye.M.Mastyukova, T.B. Filicheva, G.V.Chirkina va boshqalar) shuningdek, nutqida nuqsoni bolgan har bir bola uchun malum mutaxassislarning ham maslahatlari zarur: nevropatolog, neyrofiziolog, otoronolaringolog, ortodont, stomatolog .

Eshitmaydigan bolalarda nutq buzilishlarining xilma-xilligi kuzatiladi. U yoki bu holatni ma'lum nutq nuqsonlari guruhiba moslashtirish, logopediyada tavsiflangan nutq nuqsonlari klassifikasiyasiga ko'ra keyinchalik qanday pedagogik ta'sir yo'nalishini tanlash uchun muhim har bir bolada turli shakldagi nutq nuqsonlari bolib, ular o'ziga xos simptomlarga va dinamikaga ega.

Aslini olganda bu muloqotning poydevori ona qornida shakllanadi. Bola ona qornida 3 oylik bo'lganida uning yuragi ura boshlaydi. Aynan shu davrda bola onaning psixologik holatini his qiladi hamda tovushlarni eshitadi. Bu davrda onaning bolasi bilan muloqot qilishi muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Shaxs tarbiyasining negizi ham onaning homiladorlik davriga borib taqaladi. Bu holat olimlar tomonidan ham o'z isbotini topgan. Shu mavzudagi turli rivoyatlar bizgacha yetib kelgan. Rivoyat qilishlaricha , bir donishmandning oldiga 6 oylik bolani tarbiyalab bering, deb olib borishadi. Shunda donishmand so'raydi, “Bolangiz necha oylik bo'ldi?” desa. “ Bolamiz 6 oylik bo'ldi “ deb javob qaytarishadi. “ Bola tarbiyasiga 6 oy kechikibsizlar” deb javob beradi, donishmand. Shunday ekan, biz tarbiyani ona qornidan boshlashimiz zarur bo'lgani kabi, muloqotni ham

25-Mart, 2025-yil

shu davrdan boshlashimiz lozim. Bu muloqot jarayoni u dunyoga kelgach, alla orqali bevosita olib boriladi. Bola tug‘ilgandan so‘ng, ona o‘z mehrini alla ohanglariga tushirib, bolasini allalaydi, ovutadi, butun dil isxorlarini eshilib sochilib kuylaydi. Bola alla orqali birinchi navbatda onasini muhabbatini, mehrini sezadi, tovushlar va kuy bilan tanishadi, orom olib yotadi. Ammo bugungi kunda dilni xira qiladigan bir holat borki, aksariyat yosh onalar bolalariga alla aytishmaydi, yoxud alla aytishni bilishmaydi, go‘yoki eskicha qarash qabig‘ida ish tutadi. Oqibatda buning salbiy ta‘siri yillar o‘tgach, namoyon bo‘ladi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Nurkeldiyeva D.A., Ayupova M.Y., Ahmedova Z.M. Barmoqlar mashqi logopedik o‘yinlar. - T.: Yangi asr avlod, 2007
2. Волкова Г.А. Логопедическая ритмика. - М.: Просвещение, 2003.
3. Дякова Е.А Логопедический массаж. - М.: Академия, 2003
4. Axmedova Z., M.Ayupova, M.Xamidova. Logopedik o‘yin, - Т.: Файласуфлар, 2013
5. Ayupova M.Yu. Logopediya. – Т.: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti. 2007